

## HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA QAHRAMON PSIXOFIZIOLOGIYASI OID QARASHLAR

**Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, o'zbek tili fani o'qituvchisi*

ORCID ID 0009-0005-9389-7308

[Abdurahimova772@gmail.com](mailto:Abdurahimova772@gmail.com). 998905602128

**Annotatsiya.** Maqolada psixofiziologik holat masalasi yozuvchi Nabi Jaloliddin qissalari misolida tadqiq etilgan. Unda bugungi kunda adabiyotshunoslar tomonidan qiziqish bilan o'rganilayotgan psixofiziologik vositalarning nazariy asoslari tahlil qilingan.

**Abstract.** The article examines the issue of psychophysiological condition on the example of the stories of the writer Nabi Jalaluddin. In it, the theoretical foundations of psychophysiological tools, which are being studied with interest by literary scholars today, are analyzed.

**Абстрактный.** В статье рассматривается вопрос психофизиологического состояния на примере рассказов писателя Наби Джалалуддина. В ней анализируются теоретические основы психофизиологического инструментария, которые сегодня с интересом изучаются учеными-литературоведами.

**Kalit so'zlar:** Sukut, psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, obraz, ruhiyat, ichki kechinma

**Key words:** Silence, psychology, psychophysiology, gesture, facial expression, image, psyche, inner experience

**Ключевые слова:** Молчание, психология, психофизиология, жест, мимика, образ, психика, внутреннее переживание.

Ustozimiz Y.Solijonov psixofiziologik holat yaratishning usullari haqida gapirar ekan, bunday tasvir vositalari haqida yana quyidagi fikrlarni ham alohida ta'kidlaydi: So'nggi yillar o'zbek nasrida namoyon bo'layotgan jest va mimikalarning vazifasi va xizmat doirasini quyidagi aspektlarda o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

“1. Dialogda ishtirok etuvchi personajlarning nutqiy xarakteristikasini, tashqi qiyofasini, ayni chog'da ichki qiyofasini ifodalash;

2. Jest va mimikani ifodalovchi iboralarning dialog bilan payvandlashish usullari hamda ichki tartibini o'rganish. Bunda muallif izohi (remarkasi) ning dialogni rivojlantirishdagi stilistik roli inobatga olinadi. Chunki jest va mimikaga oid so'z hamda iboralar, odatda dialoglar orasidagi muallif remarkalarida qo'llaniladi;

3. Qahramon jesti va mimikasi zimmasiga yuklangan axborotning estetik qimmatini o'rganish, ya'ni muallif ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyaviy-estetik va syujet-kompozitsion niyatni o'quvchiga to'laroq yetkazishga ko'maklashadigan badiiy tasvir vositalarining roli hamda ularning nutqdagi stilistik o'ziga xosligini aniqlash<sup>22</sup>.

Ustozimizning yuqorida keltirgan nazariy ma'lumotlariga tayangan holda aytilish mumkinki, personaj qiyofasi: uning tashqi ko'rinishi, yuzi, jussasining statik yoki dinamik (yuzdagi ifoda, ayniqsa ko'z, mimika, hatti-harakat, qiliq va yurishidagi o'ziga xoslik) tasviridir. Qahramon ichki va tashqi qiyofasini tasvirlash barobarida muallif niyati ham namoyon bo'la boshlaydi. Bu asar asarni o'qish davomida kitobxonga personajni tushunish, dardini his qilish imkonini beradi. quyidagi parchada urush maydonidagi holatlardan biri tasvirlangan.

“Akbar hali eng dahshatli manzarani sezmagandi. Atrofidagi ko'zlari ola-kula bo'lgan odamlarning vahimali chinqirishini eshitib, o'z tankining gumbaziga qaradi. Gumbaz qip-qizil qon edi. Komandirning tuynugidan bitta qo'l chiqib turar, u ham qonga bo'yalgandi. Akbar sarosima ichida tuynukka mo'raladi, u yerdagi Jenyaning boshsiz tanasini ko'rib, chinqirib yubordi<sup>23</sup>. Yo'lda ularga hamrohlik qilgan sanitar qiz Jenyaning o'limi shu darajada tez va kutilmaganda sodir bo'ldiki, bunday qorquvdan odamlarning ko'zlari ola-kula bo'lib ketishi, chinqirashlari jang maydonidagi dahshatni ko'rsatib turibdi. Akbarning sarosimali psixofizologik holatda chinqirib yuborishi orqali bizga urush tasvirini dahshatli tarzda ko'z oldimizda namoyon qilmoqda.

“Ko'pchilikning bu mudhish manzaradan ko'ngli behuzurlandi, tank ustida tizzalab qolgan Akbar ham yig'i aralash o'xchirdi. Bo'lib o'tgan voqea juda dahshatli edi, u jangchilarga, ayniqsa, Akbarning ruhiyatiga tasir qilmay qolmadi. Uning butun vujudi titrar, boshi aylanib, ko'ngli aynirdi, xuddi tomog'iga bir nartsa tiqilib qolganday qayta-qayta o'xchirdi<sup>24</sup>. Asar qahramonini tashqi qiyofasidagi o'zgarishni tasvirlashida muallif ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyaviy-estetik va syujet-kompozitsion niyatni o'quvchiga to'laroq yetkazishga ko'maklashadigan badiiy tasvir vositalarining roli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ustozimizning yuqoridagi ilgari surgan nazariy ma'lumotlariga to'liq mos keladi.

Badiiy nutqda qahramon holatini ko'rsatish uchun, odatda, fe'l turkumiga oid so'zlar ko'proq ishlatiladi. Bunda personajning jesti yoki mimikasini ifodalash maqsadida inson organizmi a'zolarining birortasi “ishga solinadi”. Bu muallif izohi orqali aks ettirilayotgan qahramonning ichki holatini hamda kechinmalarini kengroq qamrab olishga yordam beradi. Shunisi ham muhimki, diologlardan oldin, orada yoki keyin

<sup>22</sup>Solijonov Y. Ko'zgudagi hayot. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent- 2013. 53-b

<sup>23</sup> Jaloliddin N “O'limning rangi” G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; 2021. 35-b

<sup>24</sup> Jaloliddin N “O'limning rangi” G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; 2021. 36-b

kelgan jest va mimikalar soʻzlovchining ayni chogʻdagi psixofiziologik holatini aniq va koʻrimli ifodalashga xizmat qiladi. Keyingi yillarda oʻzbek adabiyotida diolog tasirchanligini oshiradigan jest va mimikalarning inson xatti-harakatlari, ayniqsa, uning ruhiy holatini ochishdagi xizmat doirasi kengayib borayotganligi koʻzga tashlanmoqda. Oʻzbek adiblari ham Tolstoy qayd etganidek, “Jest nutqning asosi” ekanligini amalda isbotlashga erishmoqdalar. Yozuvchilarimiz inson ruhiyatini aniqroq, chuqurroq ochish uchun jestdan kalit sifatida unumli foydalanayotganligini koʻrish mumkin.

Badiiy asarda qahramonlar ruhiyati oʻzaro muloqot-diologlar vositasida yaqqolroq tasvir etiladi bunda diolog asosiy omil boʻlib, ikki taraf ham bir-biriga aytadigan soʻzlari vositasida oʻzligi, (ruhiy holati kayfiyati, xarakteri) oshkor etib boriladi. Qahramonlar oʻzaro munosabatida psixofiziologik tasvir vositasi uchraydi. Bu kabi vositalarga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), koʻz yosh, kulgi, sukut va boshqalar kiradi. Bu vositalar muloqot jarayonini kuchaytiradi, baʼzan soʻzning oʻrnini bosadi. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda, 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimka yordamida ifodalanadi. Masalan, rost soʻzlayotgan kishi ochiq kaftlarini koʻrsatishdan qoʻrqmaydi aksincha, yolgʻonchi ularni berkitishga harakat qiladi. Suhbatdoshdan oʻzini yuqori tutish belgilaridan biri butun kaft choʻntakda boʻlib bosh barmoqning tashqariga chiqarib qoʻyilganligidir. Shubhalanuvchanlikni odatda ogʻizni qoʻl bilan himoyalash, burunga tegib qoʻyish, qovoqlarni silab qoʻyish, quloq ortini yoki boʻyinni qashlab qoʻyish bildirib qoʻyadi. Dahanni silab-silab qoʻyish qaror qabul qilishga qiynalishni koʻrsatadi. Asabiylik holati kishining biror narsaga – bilakuzugi, soati va shu kabilarga hech qanday maqsadsiz qayta-qayta tegib turishi ostiga yashiriladi<sup>25</sup>.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Solijonov Y.Koʻzgudagi hayot.A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.Toshkent- 2013
2. M. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, Turon-Iqbol, 2006
- 3 .Jaloliddin N “ Oʻlimning rangi” Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; 2021
4. Mastura, J. (2021). Applying social forms: the project method in teaching foreign languages. *Бюллетень науки и практики*, 7(11), 354-358.
5. Qizi, J. M. T. (2021). The use of social forms to increase lesson effectiveness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 103-109.

<sup>25</sup> M. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, Turon-Iqbol, 2006.-B. 35-36

6. Mastura, J. R. (2022). The Use of Social Forms in Improving the Effectiveness of the Lesson. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 9, 118-122.

7. Kizi, M. T. (2020). Applying the social forms of education in teachng foreign languages. *Вопросы науки и образования*, (41 (125)), 56-60.

8. Jurayeva, M. T. K. (2022). SOME OPINIONS ABOUT SOCIAL FORMS IN TEACHING GERMAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 372-376.

